

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 07/13.05.2020.Yu.22.03  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**AKBARALIYEVA MUHAYYO KARAMATULLO QIZI**

**ODAM O'G'RILASHNING JINOYAT-HUQUQIY XUSUSIYATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Акбаралиева Муҳайё Караматullo қизи**

Odam o'g'rilashning jinoyat-huquqiy xususiyatlari.....3

**Акбаралиева Мухайё Караматулло кизи**

Уголовно-правовая характеристика похищения человека.....25

**Акбаралиева Mukhayyo Karamatullo kizi**

Criminal-lrgal characteristics of kidnapping .....49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....53

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 07/13.05.2020.Yu.22.03  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**AKBARALIYEVA MUHAYYO KARAMATULLO QIZI**

**ODAM O‘G‘RILASHNING JINOYAT-HUQUQIY XUSUSIYATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1470 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati 3 tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abzalova Xurshida Mirziyatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlari doktori, professor

**Qurbonov Davlat Ravshanovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 16-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1421-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel: +99871 233-66-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 29-avgust kuni tarqatildi.  
(2025-yil 29-avgustdagi 54-raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.A.Otajonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**I.B.Djurayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**D.B.Bazarova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar  
doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda odam o'g'rilash bilan bog'liq transmilliy qilmishlar mehnat va jinsiy ekspluatatsiya, shuningdek inson organlari transplantatsiyasi singari oqibatlarini yuzaga keltirib global xavfsizlikka jiddiy zarar yetkazmoqda. BMT ma'lumotlariga qaraganda odam o'g'rilash bilan bog'liq jinoyatchilik natijasida olinadigan yillik daromad miqdori 20 mlrd AQSh dollarini, tashkil etib<sup>1</sup>, global jinoyatchilikning uchinchi yirik turiga mansub bu qilmish natijasida taxminan 25 mln. kishi majburiy mehnat va jinsiy ekspluatatsiyaga duchor etiladi<sup>2</sup>. Bu esa migratsiya va qochqinlik holatlarining ortishiga, uyushgan jinoyatchilikning avj olishiga, mehnat bozorida raqobat muhitining buzilishiga hamda fuqarolarning erkin harakatlanishda ifodalanadigan huquq va qonuniy manfaatlariga jiddiy putur yetishiga olib kelmoqda. Bu kabi holatlarning oldini olish, choralar qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, qurbonlarni himoya qilish va jinoyatchilarni jazolash mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek odam o'g'rilashning oldini olish hamda mazkur qilmishlarga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Jahonda odam o'g'rilashga qarshi kurashishda xalqaro tashkilotlar o'rtasida axborot almashish tizimini takomillashtirish, mamlakatlar chegaralarida kuchaytirilgan nazorat mexanizmlarini joriy qilish, majburiy mehnat yoki jinsiy ekspluatatsiya qurbonlarini jinoiy javobgarlikka tortilishini oldini olish, mazkur turdagi jinoyatchilikka qarshi kurashishda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash, "xavfsiz shahar" tizimini yaxshilashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, odam o'g'rilashning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o'rganish, mazkur turdagi jinoyatlarning global xavfsizlikka ta'sirini o'rganish hamda ularga qarshi kurash bo'yicha yangi siyosat va chora-tadbirlarni joriy qilish yuzasidan muayyan natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan bugungi sharoitda odam o'g'rilashning milliy xavfsizlik hamda kriminogen zararlanishga tashqi va ichki omillar ta'sirini tadqiq etish, odam o'g'rilashga qarshi kurashishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolarini aniqlash, bu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik choralari jihatidan ilmiy tadqiq etish lozimligini taqozo etmoqda.

Respublikamizda odam o'g'rilash bilan bog'liq jinoyatchilikka qarshi kurashish, shaxsning daxlsizligini ta'minlash masalasi uning konstitutsion erkinligi sifatida belgilanib, shaxsning erkinligi va sha'ni hamda qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar qurbonlariga psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy yordam ko'rsatish usullari va dasturlari ishlab chiqish, ularning xavfsizligini ta'minlash, jinoyat qurbonlari rehabilitatsiyasini takomillashtirish, mazkur turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarini huquqiy tartibga solishga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, odam o'g'rilash jinoyatiga qarshi

---

<sup>1</sup> Economic Shocks and Human Trafficking Risks: Evidence from IOM's Victims of Human Trafficking Database // <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/46e7dcca-e898-534e-b233-516d4f61ae1>

<sup>2</sup> Mapping the impact of illicit trade on the sustainable development goals // [https://unctad.org/system/files/non-official-document/DITC2020\\_TRACIT\\_IllicitTradeandSDGs\\_fullreport\\_en.pdf](https://unctad.org/system/files/non-official-document/DITC2020_TRACIT_IllicitTradeandSDGs_fullreport_en.pdf)

kurashishning jinoyat-huquqiy asoslarini mustahkamlash, odam o'g'rilash jinoyatlarini aniqlash, tergov qilish va oldini olish bo'yicha maxsus bo'linmalar faoliyatini yo'lga qo'yish, transmilliy odam o'g'rilash jinoyatlariga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, odam o'g'rilashdan jabrlangan shaxslarga reabilitatsiya markazlari faoliyatini tashkil etish mazkur jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlari va vazifalari etib belgilangan. Ushbu vazifalar odam o'g'rilash bilan bog'liq jinoyatlarning mamlakat xavfsizligi va iqtisodiyotiga tahdid soladigan qilmishlarga qarshi kurashish hamda bu borada jinoyat qonunini qo'llash amaliyotini yaxshilash, jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalarini tadqiq etishni taqozo qiladi. "Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistondagi islohotlarda eng muhim o'rinda turadi. 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari mamlakatimizda har bir insonning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni ko'zda tutadigan "hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslik" tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bu o'rinda so'z Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi ekspertlarining faol ishtirokida ishlab chiqilgan Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyani amalga oshirish to'g'risida bormoqda"<sup>3</sup>. Ushbu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishning zaruriy sharti – erkinlikka tajovuz qilish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat-huquqiy normalarni to'g'ri qo'llashni, ushbu sohada qonunchilikni takomillashtirish masalalarini tadqiq etishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi O'RQ-561-son "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida", 2024-yil 29-fevraldagi O'RQ-917-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi PF-4850-son "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 16-yanvardagi PF-11-son "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida", 2024-yil 10-maydagi PQ-175-son "Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon va qarorlari hamda mazkur sohadagi boshqa qonun hujjatlarini amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi

<sup>3</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. URL: <https://president.uz/ru/lists/view/4179>

doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Odam o'g'rilash jinoyatiga qarshi kurashishning ayrim masalalari M.X. Rustambayev, R. Kabulov, K.R. Abdurasulova, R.A. Zufarov, N.S. Salayev, A.A. Otajonov, G'. Ermatov, X.M. Abzalova, N.B. Qurbonov, D. Qurbonov, O. Toshev, I. Yu. Fazilov va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada o'rganilgan.

Jumladan, M.X. Rustambayev o'z ishlarida odam o'g'rilashni kvalifikatsiya qilish masalalarini, R. Kabulov odam o'g'rilash orqali odam savdosini kvalifikatsiya qilish masalalarini, A.A. Otajonov odam o'g'rilash tushunchasi, kvalifikatsiya qilish masalalarini, X.M. Abzalova odam o'g'rilashni qasddan odam o'ldirish bilan birgalikda kvalifikatsiya qilish masalalarini o'rganganlar.

Shu bilan birga, odam o'g'rilash jinoyatining jinoyat-huquqiy tavsifini quyidagi xorijiy olimlar o'rgangan: L.G. Abdulmuslimova, A.SH. Aliev, O.V. Volkova, B.A. G'adjiemenov, D.V. Golenko, I.A. Juravlyov, V.I. Zubkova, A.V. Klimenko, N.E. Martinenko, R.E. Oganyan, D.A. Sitnikov va boshqalar. Odam o'g'rilash uchun javobgarlikka bag'ishlangan ishlar quyidagi mualliflar tomonidan amalga oshirilgan: Alex.P. Schmid, Alix Ernest; Briggs Rachel; Cohen David S.; David McCulloch; Lalekan Oluwadele; Loertscher Seth; Milton Daniel; Osman Muna; Simon Joel va boshqalar.

Yuqorida keltirilganlar shundan dalolat beradiki, mamlakatimizda odam o'g'rilash jinoyatining nazariy va amaliy jihatlari, xususan, jinoyat-huquqiy tavsifi, kvalifikatsiya va jazo tayinlash masalalari monografik tadqiqot darajasida mukammal va kompleks tarzda o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasidagi "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirish muammolari", "Globallashtirish sharoitida jinoyatchilikka qarshi kurashni takomillashtirish muammolari", "Sud-huquq sohasini isloh qilish va jinoyat qonunini liberallashtirish sharoitida jazo tizimini isloh qilish muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** odam o'g'rilash uchun javobgarlikni takomillashtirish hamda mazkur jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- odam o'g'rilash uchun javobgarlikning umumiy tavsifini tahlil qilish;
- odam o'g'rilash institutining huquqiy tartibga solinishi genezisini o'rganish;
- odam o'g'rilashning obyektiv belgilarini tahlil qilish;
- odam o'g'rilashning subyektiv belgilarini tahlil qilish;
- xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonunchiligi bo'yicha odam o'g'rilash uchun javobgarlikni o'rganish;
- odam o'g'rilashni kvalifikatsiya qilish va boshqa o'xshash jinoyat tarkiblaridan farqlash masalalarini o'rganish;
- odam o'g'rilash uchun javobgarlik sohasida jinoyat qonunchiligini

takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida odam o'g'rilash uchun javobgarlik belgilangan Jinoyat kodeksi normalarini takomillashtirish bilan bog'liq jinoyat-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** odam o'g'rilash uchun javobgarlikka oid huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, qonunni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbaalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, qonunni qo'llash amaliyotini tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

inson a'zolari va (yoki) to'qimalarini olib qo'yish maqsadida odam o'g'rilashning ijtimoiy xavfi yuqoriligi va bu harakat Jinoyat kodeksining 137-moddasiga muvofiq og'irlashtiruvchi belgilersiz kvalifikatsiya qilinishi sababli inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish maqsadida odam o'g'rilash sodir etilgan bo'lsa javobgarlikni kuchaytirish zaruriyati asoslantirilgan;

o'g'irlash, zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo'llash orqali sodir etiladigan odam savdosi jinoyatini (JK 135-m., 2-q., "a" b.) odam o'g'rilashdan farqlash va huquqiy baholashda xato va kamchiliklar borligi sababli JK 137-moddasining birinchi qismidagi "245-moddasida" degan so'zlarni "135, 245-moddalarida" degan so'zlar bilan almashtirilish zaruriyati asoslantirilgan;

ikki yoki undan ortiq shaxslarni o'g'rilash holatlari ortib borayotganligi hamda bunday qilmishlarning ijtimoiy xavfi yuqoriligi sababli ikki yoki undan ortiq shaxsni o'g'rilash uchun javobgarlikni kuchaytirish zaruriyati asoslantirilgan;

voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan odam o'g'rilash bilan bogliq qilmishlarni kvalifikatsiya qilishda xato va kamchiliklar borligi sababli JK

137-modda 2-qismi "a" bandini "o'n sakkiz yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan" tahririda bayon etish zaruriyati asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Jinoyat kodeksining 137-moddasi dispozitsiyasida odam o'g'rilash belgilari ko'rsatilishi zarurligi to'g'risida taklif asoslangan;

odam o'g'rilash moddasiga "uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab" bandini og'irlashtiruvchi belgilariga qo'shish zarurligi to'g'risida taklif asoslangan;

qasddan odam o'ldirish moddasiga "odam o'g'rilash bilan bog'liq holda" bandini kiritish zarurligi to'g'risida taklif asoslangan;

odam o'g'rilash moddasiga "qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolarni ishlatib" og'irlashtiruvchi belgisini kiritish to'g'risida taklif asoslangan;

odam o'g'rilash moddasiga "hayot yoki sog'liq uchun xavfli sharoitda saqlagan holda sodir etilgan bo'lsa" og'irlashtiruvchi belgisini kiritish to'g'risida taklif

asoslangan;

“Odam o‘g‘rilash ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida” Oliy sud Plenumi qarorini qabul qilish zarurati asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari insonning asosiy huquqlarini, shu jumladan erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini mustahkamlaydigan xalqaro hujjatlar, ayrim xorijiy davlatlarning tajribasi, milliy qonunchilik normalari, 106 jinoyat ishlariga, ijtimoiy tadqiqotlar natijalari (212 huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari, 195 sud tizimi xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari) umumlashtirilishi orqali amaliy jihatdan asoslantirilgan, bundan tashqari, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan ma’qullangan va amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan qoidalar jinoyat huquqi nazariyasining rivojlanishiga, kelajakda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, yuridik oliy o‘quv yurtlarida jinoyat huquqi fanidan dars o‘tish hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda, shuningdek, ushbu tadqiqot ishi natijasi odam o‘g‘rilash uchun javobgarlik belgilash va uning oldini olish bilan bog‘liq muammolarning hal etilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati odam o‘g‘rilash uchun javobgarlik belgilash va uning oldini olish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan bir qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda, Jinoyat kodeksini takomillashtirishda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Odam o‘g‘rilashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish natijalari asosida:

inson a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini olish maqsadida odam o‘g‘rilash sodir etilgan bo‘lsa javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining yangi tahrirdagi 137-moddasi 3-qismi dispozitsiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 29-fevraldagi 3-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi adolatli jazo belgilanishiga xizmat qiladi;

o‘g‘irlash, zo‘rluk ishlatish yoki zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo‘llash orqali sodir etiladigan odam savdosi jinoyatini (JK 135-m., 2-q., “a” b.) odam o‘g‘rilashdan farqlash va huquqiy baholashda xato va kamchiliklar borligi sababli JK 137-moddasining birinchi qismidagi “245-moddasida” degan so‘zlarni “135, 245-moddalarida” degan so‘zlar bilan almashtirilish lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining yangi tahrirdagi 137-moddasining 1-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 25-iyuldagi 30/810-24-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi odam o‘g‘rilash va odam savdosi uchun javobgarlikning differentsiatsiya qilinishiga xizmat qiladi;

ikki yoki undan ortiq shaxsni o‘g‘rilashni o‘dam o‘g‘rilash jinoyatining og‘irlashtiruvchi belgisi sifatida qayd qilish lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining yangi tahrirdagi 137-moddasi 2-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 25-iyuldagi 30/810-24-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi adolatli jazo belgilanishiga xizmat qiladi;

voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan odam o‘g‘rilash bilan bogliq qilmishlarni kvalifikatsiya qilishda xato va kamchiliklar borligi sababli JK 137-modda 2-qismi “a” bandini “o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan” tahririda bayon etish lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan ‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining yangi tahrirdagi 137-moddasi 2-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 25-iyuldagi 30/810-24-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi adolatli jazo belgilanishiga xizmat qiladi. Mazkur taklifning tatbiq etilishi qilmishning to‘g‘ri baholanishiga va adolatli jazo tayinlanishiga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 3 ta xalqaro, 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish, jumladan, 4 ta ilmiy maqola xorijiy nashrlarda, 6 ta ilmiy maqola respublika jurnallarida va 4 ta tezis chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 148 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirishi** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)da tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Odam o‘g‘rilash uchun jinoiy javobgarlik belgilashning ijtimoiy shart-sharoitlari**” deb nomlanib, odam o‘g‘rilashning rivojlanishi genezisiga bag‘ishlangan bo‘lib, unga retrospektiv tahlil, odam o‘g‘rilash uchun jinoiy javobgarlikning umumiy tavsifi, shaxsiy erkinlik sohasida davlatning jinoyat siyosati, jismoniy erkinlik tushunchasini o‘rganish, butun dunyo bo‘ylab sodir etilgan odam o‘g‘rilashlari bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni o‘rganish, odam o‘g‘rilashning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini tahlil qilish, odam o‘g‘rilash tushunchalarini o‘rganish masalalari kiritilgan.

Muallifning ta‘kidlashicha, tarixiy nuqtai nazardan odam o‘g‘rilash unga nisbatan eng qadimiy tajovuzlardan biri hisoblanadi. Bu holatda aybdor faqat insonning erkinligiga emas, balki sog‘ligi va hayotiga ham tajovuz qiladi, chunki

odam o'g'rilash deyarli barcha holatlarda boshqa jinoyatlar bilan birgalikda sodir etiladi. Odam o'g'rilash genezisini o'rganish natijasida aniqlandi, odam o'g'rilash uchun javobgarlik faqat muayyan toifadagi shaxslarni: bolalar, ayollar, erkin odamlar va hokazolarni o'g'rilash holatida mavjud bo'lgan.

O'rganilgan manbalar asosida ta'kidlanadiki, yurtimiz hududida odam o'g'rilash uchun javobgarlikning tarixiy o'rganishni quyidagi davrlarga bo'lish mumkin: islomgacha bo'lgan davr; islom davri; chor Rossiyasi hukmronlik davri; sovet davri; mustaqil O'zbekiston davri.

Islomgacha bo'lgan davr. Bizning hududda qadimgi davrda qonunlarning asosiy manbai Avesto bo'lgan. Avestada erkin insonni qulga aylantirishga ta'qiq yo'q bo'lsa-da, manbada insonni saqlash shartlari haqida so'z yuritilgan, ularni saqlashga qo'yilgan talablar qayd etilgan. Qullarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, ularni suvsiz saqlash ta'qiqlangan. Avestada ayollar va bolalarni asirga olish man etilgan.

Islom davri. Diniy manbalarni o'rganish natijasida odam o'g'rilash "tazir" toifasiga (bu so'z "untirish", "tuzatish" deb tarjima qilinadi) kirishi aniqlandi, chunki bu qilmish Qur'on va Sunnatda qayd etilmagan. Ushbu toifaga Allohning ham, ayrim shaxslarning ham huquqlarini buzuvchi barcha boshqa huquqbuzarliklar kiradi. Qur'on va Payg'ambarning Sunnatida bunday ishlar uchun aniq jazo ko'zda tutilmagan. Bunday ishlar bo'yicha sanktsiya qozi (sudya) hukmiga ko'ra belgilangan.

Chor Rossiyasi hukmronlik davri. Jinoyat tuzugini o'rganish davomida shaxsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar sifatida quyidagi qilmishlar belgilangani aniqlandi: qul savdosi, bola o'g'rilash, yashirish, almashtirish, qaytarmaslik, o'zida qoldirilgan bola haqida xabar bermaslik, 16 yoshga to'lmagan qizlarni behayolik (buzuqlik, fahshlik, jirkanch xulq) maqsadida o'g'rilash, nikohga kirish maqsadida turmushga chiqmagan shaxsni o'g'rilash. Tahlillar davomida voyaga yetgan shaxsni o'g'rilaganlik uchun javobgarlik mavjud emasligi aniqlandi.

Sovet davri. RSFSRning 1922-yilda qabul qilingan ilk Sovet Jinoyat Kodeksi tahlili asosida (Turkiston o'lkasi hududida ham amal qilgan) ushbu davrda javobgarlik faqat bolani o'g'rilash uchun belgilangan. Manbalarni o'rganish jarayonida buning sababi aniqlandi: mamlakatdagi og'ir ahvol, tinmay davom etgan urushlar natijasida qarovsiz qolgan bolalar soni oshgan edi.

Keyingi manba sovet davridagi 1926-yilda qabul qilingan O'zSSRning birinchi Jinoyat kodeksi bo'lgan. Erkinlikka qarshi jinoyatlar 1922-yildagi RSFSR Jinoyat kodeksidagi holicha qolgan. Shunday qilib, voyaga yetgan shaxsni o'g'rilash uchun javobgarlik nazarda tutilmagan.

Sovet davridagi navbatdagi manba 1959-yilda qabul qilingan O'zSSR Jinoyat kodeksi bo'lgan. Ushbu Kodeksni o'rganish jarayonida katta yoshdagi odamni o'g'rilash uchun javobgarlik mavjud emasligi aniqlandi.

Mustaqil O'zbekiston davri. 1959-yildagi O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksi o'rnini 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan va 1995-yil 1-apreldan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi egalladi. Muallifning ta'kidlashicha, aynan shu davrdan boshlab jinoyat-huquqiy himoya obyektlarining ustuvorligi keskin o'zgargan. Agar avval davlat asosiy obyekt bo'lgan bo'lsa, O'zbekiston

Respublikasi Jinoyat kodeksi qabul qilinganidan keyin shaxs, uning huquq va erkinliklari ustuvor obyektga aylandi.

Retrospektiv tahlil shundan dalolat berdiki, inson erkinligi hozirgi kundagiday himoya qilinmagan, balki faqatgina O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi qabul qilingan paytdan boshlab himoyaga olingan. Jabrlanuvchining yoshidan qat’iy nazar odam o‘g‘rilash uchun alohida javobgarlik kiritilgan.

Tahlil natijasida aniqlandiki, 2001-yilda jazolar tizimidan mulkni musodara qilish chiqarib tashlangan. Shunday qilib, 137-moddaga kiritilgan birinchi o‘zgartish – modda sanksiyasidan mulkni musodara qilishni chiqarishdan iborat bo‘lgan.

Muallif ta’kidlaydiki, 2015-yilda jazolar tizimiga ozodlikni cheklash jazosi kiritilgan. Bu turdagi jazoni penalizatsiya qilish natijasida ozodlikni cheklash ko‘plab moddalar, jumladan, 137-moddaning birinchi qismi sanksiyasiga ham kiritilgan. Shunday qilib, birinchi qismda ozodlikdan mahrum qilish bilan birga, 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash jazosi ham nazarda tutilgan.

Tadqiqot davomida aniqlandiki, yuqorida qayd etilgan o‘zgartishlar faqat odam o‘g‘rilash javobgarligini nazarda tutuvchi moddaga emas, balki butun Jinoyat kodeksiga taalluqli bo‘lgan.

2022-yilda 137-moddaning uchinchi qismiga “inson a’zolarini va (yoki) to‘qimalarini olish maqsadida sodir etilgan bo‘lsa” kvalifikatsiyalovchi belgi kiritilgan. 2022-yil iyun oyida Jinoyat kodeksiga inson a’zolari va (yoki) to‘qimalarini olish masalasiga doir o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan. Maxsus qismning to‘rtta moddasi (97, 104, 135, 137) ushbu band bilan to‘ldirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotida qayd etilishicha, Jinoyat kodeksi qabul qilingan paytdan boshlab 137-modda faqat uch marta o‘zgartirilgan va to‘ldirilgan bo‘lib, barcha o‘zgartishlar faqat odam o‘g‘rilashga emas, balki butun Kodeksga oid bo‘lgan.

Muallifning ta’kidlashicha, bugungi kunda insonning asosiy huquqlarini mustahkamlovchi o‘ttizdan ortiq xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Dissertant tomonidan quyidagilar o‘rganilgan: 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi; 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt; 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt; 1950-yil 4-noyabrda qabul qilingan Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa konventsiyasi; 1950-yil 4-noyabrda qabul qilingan Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Rim konventsiyasi; 1987-yil 26-noyabrda qabul qilingan Qiynoqlar va shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi munosabat yoki jazoning oldini olish to‘g‘risidagi Yevropa konventsiyasi.

Tadqiqotchi P.K.Petrov, R.D.Sharapov, Y.V.Ushakova va boshqalarning ishlari asosida, shuningdek, ilm-fanda ilgari surilgan zamonaviy yondashuvlarga asoslanib, jismoniy erkinlik – bu harakat erkinligi, joy tanlashdagi erkinlik ekanligini ta’kidlaydi.

Dissertant ilmiy manbalar (R.A.Adelxanyan, B.A.Gadjiemenov, N.E.Martinenko, R.E.Oganyan, E.F.Pobegaylo, D.A.Sitnikov) tahlili asosida

jinoyat huquqi doktrinasida odam o'g'rilash tushunchasi bo'yicha yagona fikr mavjud emasligini aniqlagan. Dissertant mazkur bobda odam o'g'rilash – bu qasddan sodir etilgan harakat bo'lib, u har qanday usulda shaxsni qo'lga olish, uni ijtimoiy muhitidan ajratib olish va doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyidan ko'chirishni o'z ichiga oladi hamda uni o'z xohishiga qarshi boshqa joyda ushlab turishni nazarda tutadi, degan xulosaga kelgan. Muallif odam o'g'rilash doimo qasddan sodir etilishini isbotlagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Odam o'g'rilashning jinoyat-huquqiy tavsifi”** deb nomlanib, odam o'g'rilashning obyektiv alomatlarini tahlil qilish, odam o'g'rilashning subyektiv alomatlarini tahlil qilish, odam o'g'rilashning bevosita obyekti haqidagi fikrlarni o'rganish, odam o'g'rilashning kvalifikatsiyalovchi alomatlarini tahlil qilish, odam o'g'rilashning tugallanish vaqti to'g'risidagi fikrlarni tadqiq qilish, odam o'g'rilash usullarini o'rganishga bag'ishlangan.

Tadqiqotchi R.E.Oganyan, M.Lisov, E.F.Pobegaylo, L.G.Abdulmuslimova, V.I.Zubkova, I.M.Tyajkova, T.M.Ustinova, R.D.Sharapov va boshqalarning tadqiqotlari hamda ilmiy sohadagi zamonaviy yondashuvlarga asoslanib, odam o'g'rilashning bevosita obyekti — shaxsning jismoniy erkinligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar ekanligini ta'kidlaydi. SHu bilan birga, erkinlik insonga tegishli bo'lgan bir qator huquqlar: shaxsiy daxlsizlik huquqi, erkin harakatlanish huquqi, tanlash erkinligi va iroda erkinligi orqali belgilanishi ta'kidlanadi. Shaxsiy daxlsizlik tushunchasi jismoniy erkinlik tushunchasiga kiritilganligi sababli, uni bevosita obyektida alohida ajratish maqsadga muvofiq emasligi qayd etiladi. Shuningdek, inson qadr-qimmati fakultativ obyektga tegishli ekanligi haqidagi fikr asoslanadi.

Shunday qilib, jismoniy erkinlik deganda insonning erkin harakatlanishi va o'z joylashuvini belgilashi, shuningdek, o'z niyatlari, xohishlari va manfaatlariga mos ravishda aktiv faoliyat yuritishi imkoniyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

Muallifning ta'kidlashicha, 137-moddaning 3-qismi “b” bandida ko'zda tutilgan kvalifikatsiyalovchi belgilari bo'yicha odam o'g'rilash og'ir oqibatlariga olib kelganda, qo'shimcha obyekt sifatida inson hayoti yoki sog'lig'i e'tirof etiladi. Og'ir oqibatlariga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: ruhiyatning buzilishi, jabrlanuvchining jinoyatdan himoyalaniish uchun tanlagan usuli natijasida (masalan, baland bino yoki harakatlanayotgan avtomashina, poezddan sakrash) olingan tan jarohatlari, jabrlanuvchining o'z joniga qasd qilishi yoki qasd qilishga urinishi, ehtiyotsizlik tufayli o'limga sabab bo'lishi, homilaning tushishi, og'ir kasallikka chalinish va boshqalar.

Shunday qilib, odam o'g'rilash ko'p obyektli jinoyatlar toifasiga kirib, bu yerda bevosita obyekt bilan bir qatorda qo'shimcha yoki fakultativ obyektlar ham mavjud bo'lishi mumkin.

Dissertant tomonidan ilmiy manbalar tahlili asosida aniqlandiki, zamonaviy jinoyat huquqi doktrinasida odam o'g'rilashning obyektiv tomonini ifodalovchi uchta belgi mavjud: 1) har qanday usulda shaxsni qo'lga olish (shaxsni uning

yashash muhitida ajratib olish); 2) shaxsni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish; 3) uni keyinchalik boshqa joyda ushlab turish.

Muallifning ta’kidlashicha, qo‘lga olish– bu shaxsni turgan joyidan ajratib olish demakdir. Ko‘chirish – jabrlanuvchini bir joydan ikkinchi joyga olib ketish, olib borish yoki olib chiqib ketish bo‘lib, bu harakatlar uning xohishiga qarshi yoki roziligisiz amalga oshiriladi. Ushlab turish – shaxsning harakatlanish huquqini cheklash, ma’lum bir joyni tark etishiga noqonuniy ravishda zo‘rluk bilan to‘sqinlik qilish demakdir.

Ko‘rib chiqilgan manbalar asosida odam o‘g‘rilash doimo faol harakatlar bilan bog‘liq ekani qayd etilgan. Muallif mazkur moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida qayd etilgan “o‘sha harakat” ifodasi odam o‘g‘rilash faqatgina harakat shaklida sodir etilishini anglatishini ta’kidlagan. SHu bilan qonun chiqaruvchi odam o‘g‘rilash harakatsizlik shaklida amalga oshirilishi mumkin emasligini belgilagan.

Bu harakatlar yashirin yoki oshkora, aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish natijasida sodir etilishi mumkin. SHuningdek, bu harakatlar tahdidlar, ruhiy yoki jismoniy zo‘rluk bilan kechishi mumkin. Odamni qo‘lga olish quyidagicha sodir bo‘lishi mumkin: yashirin ravishda — o‘g‘rilash boshqa shaxslar yo‘qligida yoki ular bor bo‘lsa-da, o‘g‘rilash haqida gumon qilmagan holatlarda; oshkora — boshqa shaxslar o‘g‘rilash jarayonini ko‘rib, uning mohiyatini anglagan holda, bunda aybdor shaxs ham boshqa shaxslar o‘g‘rilashning mohiyatini tushunishini anglashi kerak.

Muallif ta’kidlaganidek, odam o‘g‘rilashning barcha turlari ikki guruhga bo‘linadi: 1) boshqa jinoyatlar bilan jinoyatlar jamini tashkil etmagan holdagi odam o‘g‘rilash; 2) boshqa jinoyatlar bilan jinoyatlar jamini tashkil etgan holdagi odam o‘g‘rilash. Ikkinchi guruh shu bilan ajralib turadiki, odam o‘g‘rilash boshqa jinoyatlarni sodir etishning yordamchi usuli sifatida namoyon bo‘ladi. 106 ta ayblov hukmi tahlil qilinganda, faqatgina 7 ta hukmda odam o‘g‘rilash boshqa jinoyatlar bilan jinoyatlar jamini tashkil etmagan holda kvalifikatsiya qilingani aniqlandi.

Muallif (L.G.Abdulmuslimova, A.Sh.Aliev, N.E.Martinenko, P.K.Petrov, E.F.Pobegaylo, A.N.Popov, L.M.Prozumentov, A.I.Rarog, M.X.Rustambayev, T.M.Ustinova va Ye.V.Ushakova kabi) mualliflarning ilmiy ishlari hamda fanga kiritilgan zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish asosida odam o‘g‘rilash jabrlanuvchini ajratib olish va uni keyinchalik ushlab turish uchun ko‘chirish boshlangan paytdan boshlab tugallangan deb hisoblanishini ta’kidlaydi.

Dissertant tomonidan asoslanganki, odam o‘g‘rilash formal tarkibli jinoyat hisoblanadi, chunki uning tugallanish vaqti inson ozodligidan amalda mahrum qilingan payt hisoblanadi. Ushbu jinoyat uzoqqa cho‘zilgan jinoyat sanaladi, chunki jabrlanuvchi noma’lum muddat davomida tutqunlikda saqlanishi mumkin va ushbu muddat jinoyatning tugallanish vaqtiga ta’sir qilmaydi.

Muallifning ta’kidlashicha, garchi odam o‘g‘rilash formal tarkibli jinoyat hisoblansa-da, qonun chiqaruvchi tomonidan ko‘rsatilgan bir holatda u moddiy tarkibli jinoyatga aylanishi mumkin. Bu odam o‘g‘rilash natijasida og‘ir oqibatlar kelib chiqishi, ya’ni 137-moddaning uchinchi qismi “b” bandida ko‘rsatilgan

holatdir. Ushbu bandga ko‘ra, jinoyat odam o‘g‘rilash qasddan sodir etilgan bo‘lsa-da, ehtiyotsizlik natijasida og‘ir oqibatlar kelib chiqqan paytda tugallangan deb hisoblanadi: ehtiyotsizlik orqasidan odam o‘ldirish, jabrlanuvchining o‘zini o‘zi o‘ldirishi yoki o‘ldirishga urinishi, homilaning tushishi, og‘ir kasallikka chalinish va boshqalar. 137-moddaning uchinchi qismi “b” bandi bo‘yicha qilmish og‘ir oqibatlar yuzaga kelgan paytdan boshlab tugallangan deb hisoblanadi.

Subyektiv tomonidan odam o‘g‘rilash jinoyati aybning qasd shakli bilan sodir etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasini tahlil qilish davomida aniqlandiki, odam o‘g‘rilashning subyektiv jismaniy, aqli raso va 14 yoshga to‘lgan shaxs bo‘lishi mumkin.

Muallif qonun chiqaruvchi tomonidan odam o‘g‘rilash uchun jinoyi javobgarlik yoshi sifatida aynan shu yoshning tanlangani to‘g‘ri ekanligini ta’kidlagan, chunki bunday harakatni sodir etish shaxsning rivojlanganligi va yetilganligini ko‘rsatadi. Jismoniy kuchga kelsak, u har kimda har xil bo‘ladi. O‘n to‘rt yoshli shaxs kichik bolani o‘g‘rilashga jismonan qodir, shuningdek, o‘z harakatlarining ahamiyatini – odam o‘g‘rilayotganini – tushunish qobiliyatiga ega.

Dissertant tomonidan ta’kidlanishicha, Jinoyat kodeksining 137-moddasi ikkinchi qismida xuddi shu harakat (ya’ni odam o‘g‘rilash) quyidagi hollarda sodir etilgan bo‘lsa: voyaga yetmagan shaxsga nisbatan; g‘arazgo‘ylik yoki boshqa past niyatlarda; bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib; takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan sodir etilganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Shunday qilib, obyektiv belgilarga ikkinchi qismning “a” bandi: voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilganligi kiradi. Ushbu holat tajovuz obyektiga tegishli hisoblanadi.

Muallif tomonidan asoslanishicha, 137-moddaning ikkinchi qismi “a” bandi bo‘yicha (voyaga yetmagan shaxsga nisbatan odam o‘g‘rilash) jinoyat kvalifikatsiyasi uchun jabrlanuvchining yoshi aybdorga ayon bo‘lishligi ahamiyatga ega emas. Hatto aybdor shaxs jabrlanuvchining voyaga yetmaganligini bilmagan taqdirda ham javobgarlik yuqoridagi bandga muvofiq bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida voyaga yetmagan shaxsning yoshi haqida xabardorlik kvalifikatsiyaga ta’sir ko‘rsatadigan ikki holat ko‘rsatilgan: bular 135-moddaning uchinchi qismi “a” bandi – “o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa” va 141<sup>3</sup>-moddaning ikkinchi qismi “v” bandi – “o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa”. “Ayon bo‘lishlik” – qonun bilan tavsiflangan holatlar yoki xatti-harakatlarga nisbatan munosabat bo‘lib, bu holatlar haqida shaxs xabardor ekanligini ko‘rsatadi.

Huquqshunoslar, sudyalari va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijasiga ko‘ra, 60% javob beruvchilar aybdor shaxs jabrlanuvchining voyaga yetmagan yoshda ekanligini oldindan bilishi kerakligini ta’kidlashgan, bu esa 137-moddaning ikkinchi qismi “a” bandi bo‘yicha harakatni kvalifikatsiya qilish uchun muhim hisoblanadi.

Kvalifikatsiyalovchi subyektiv belgilariga quyidagilar kiradi: g‘arazgo‘ylik yoki boshqa past niyatlarda, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa.

O‘rganilgan manbalar asosida qayd etilishicha, g‘arazgo‘ylik yoki boshqa past niyatlar motivga, ya‘ni subyektiv tomonga tegishlidir. 137-moddaning ikkinchi qismining “b” bandida motiv fakultativ belgidan zaruriy belgiga aylanadi, chunki u moddada ko‘rsatilgan. G‘arazgo‘ylik moddiy manfaat olish yoki moddiy xarajatlardan qutulish shaklida namoyon bo‘lishi mumkin. Moddiy manfaat olishga misol qilib pul, mulk, mulkka bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritishni keltirish mumkin. Moddiy xarajatlardan qutulishga misollar esa qarzdan, aybdor manfaati yo‘lidagi mulkiy majburiyatlardan voz kechish bo‘lishi mumkin. Past niyatlar bo‘lib, masalan, qasos, hasad va boshqa holatlar hisoblanadi.

Muallif sud hukmlari tahliliga ko‘ra, so‘nggi vaqtlarda odam o‘g‘rilash pul bilan bog‘liq nizolarni hal etishning tez-tez uchraydigan usullaridan biriga aylanganini ta‘kidlaydi.

JK 137-moddasi tahlil qilinganda, aniqlandiki, kvalifikatsiyalovchi subyektiv belgi – bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib jinoyat sodir etish subyektiv taalluqlidir. Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib jinoyat sodir etilganligini aniqlash uchun ikki asosiy belgi talab etiladi: 1) jinoyatni sodir etishda ikki yoki undan ortiq shaxslar ishtirok etgan bo‘lishi; 2) jinoyat boshlanishidan oldin yoki bevosita uning oldidan aybdorlar o‘rtasida til biriktirilgan bo‘lishi.

Shunday qilib, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirish tushunchasi ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish to‘g‘risida jinoyat boshlanguniga qadar o‘zaro har qanday shaklda kelishib olgan ikki yoki undan ortiq shaxslarni anglatadi. Muallif tomonidan ikkinchi qismning “v” bandida keltirilgan “bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib” degan tushuncha, shuningdek, qilmishning uyushgan guruh a‘zolari tomonidan sodir etilishini ham nazarda tutishi isbotlangan.

JK 137-moddasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilganligi kvalifikatsiyalovchi subyektiv belgilar hisoblanadi. Ushbu belgilari subyektivga tegishlidir.

Dissertant tomonidan odam o‘g‘rilashni “xavfli retsivist tomonidan” belgisi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish uchun shaxs oldin odam o‘g‘rilash moddasi bo‘yicha sudlangan bo‘lishi lozimligi qayd etilgan.

JK 137-moddasining uchinchi qismi tahlil qilinganda, bu qism o‘sha harakat (odam o‘g‘rilash) uchun, agar o‘ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa; og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa; inson a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini olish maqsadida sodir etilgan bo‘lsa javobgarlikni nazarda tutadi.

Ushbu qismdagi obyektiv belgilarga faqat og‘ir oqibatlar kiritiladi. Bu holat obyektiv tomonga taalluqlidir.

Og‘ir oqibatlar deganda, masalan, ehtiyotsizlik orqasidan odam o‘ldirish, jabrlanuvchining o‘zini-o‘zi o‘ldirishi yoki o‘ldirishga urinishi, homilaning tushishi, og‘ir kasallikka chalinish va boshqalar kiradi. Bunday hollarda qo‘shimcha obyekt insonning hayoti yoki sog‘lig‘i hisoblanadi.

Subyektiv belgilarga quyidagi punktlar kiritiladi: o‘ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, inson a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini olish

maqsadida sodir etilgan bo'lsa. Birinchisi jinoyat subyektiga, ikkinchisi esa subyektiv tomonga taalluqli.

Muallif ta'kidlaganidek, 137-moddaning uchinchi qismi "v" bandi bo'yicha ("inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish maqsadida sodir etilgan bo'lsa") harakatni kvalifikatsiya qilishda maqsad fakultativ belgidan zaruriy belgiga o'tadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Odam o'g'rilash bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish va xorijiy tajriba**" deb nomlanib, u xorijiy davlatlarining jinoyat qonunchiligi bo'yicha odam o'g'rilash uchun javobgarlikni tahlil qilishga, odam o'g'rilashni kvalifikatsiya qilish va uni boshqa o'xshash jinoyat tarkiblaridan ajratish masalalarini o'rganishga, tugallanmagan odam o'g'rilashning belgilari tahliliga, sud amaliyoti tahliliga, odam o'g'rilashni odam savdosi, garovga olish, zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish, ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish holatlaridan farqlash masalalari o'rganishga, odam o'g'rilash uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish masalalarini ham tadqiq etishga bag'ishlangan.

Ayrim xorijiy davlatlar (Ozarbayjon, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston) qonunchiligini o'rganish asosida shunga e'tibor qaratildiki, odam o'g'rilash jinoyatida "ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan" kvalifikatsiyalovchi belgisi yuqorida sanab o'tilgan davlatlarning barchasining jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan. Xorijiy davlatlar JK ayrim moddalarida (Ozarbayjon, Qozog'iston, Rossiya, Tojikiston) jabrlanuvchini ixtiyoriy ravishda ozod qilgan shaxs agar uning harakatlarida boshqa jinoyat tarkibi mavjud bo'lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi ko'rsatilgan. Ba'zi mamlakatlarda (Qirg'iziston, Fransiya) esa jabrlanuvchini ozod qilish jazoni yengillashtirishga sabab bo'ladi. Shuningdek, ayrim davlatlarda odam o'g'rilash jinoyati boshqa jinoyat tarkiblarining sodir etish usuli sifatida ham ko'rsatilgan: Ozarbayjonda – qasddan odam o'ldirish, qiynash, odam savdosi; Qozog'istonda – odam o'ldirish, qasddan sog'liqqa og'ir shikast yetkazish, hokimiyat vakiliga nisbatan tahdid yoki zo'ravonlik harakatlari, qiynash va boshqalar; Qirg'izistonda – odam o'ldirish, sog'liqqa og'ir shikast yetkazish, odam savdosi; Rossiyada – odam o'ldirish, qiynash; Tojikistonda – odam o'ldirish.

MDH davlatlarining (Ozarbayjon, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston) qonunchiligiga muvofiq, odam o'g'rilash uchun jinoiy javobgarlik 14 yoshdan boshlanadi.

O'rganilgan manbalar asosida ta'kidlanishicha, odam o'g'rilash jinoyatida tugallanmagan jinoyat bosqichi bo'lishi mumkin. Odam o'g'rilashda tayyorgarlik harakatlari jinoyat sodir etish uchun shaxslarni – ya'ni ishtirokchilarni izlash; jabrlanuvchini keyinchalik saqlash uchun joy tanlash; odam o'g'rilashda ishlatiladigan avtomashinani tayyorlash va boshqalar bilan ifodalanishi mumkin. Muallif shuni ta'kidlaganki, tayyorgarlik boshqa alohida jinoyatlarni sodir etish orqali ham namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, odam o'g'rilashni osonlashtirish maqsadida o'qotar qurolni noqonuniy ravishda qo'lga kiritish (Jinoyat kodeksining 247-moddasi). Bunday hollarda harakatlar jinoyatlar jami bo'yicha (odam o'g'rilashga tayyorgarlik va o'qotar qurolni qo'lga kiritish) kvalifikatsiya qilinadi.

Odam o'g'rilashga suiqasd qilish o'g'rilovchining ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra muvaffaqiyatsizlikka uchragan va jabrlanuvchini boshqa joyga ko'chirish hamda u yerda ushlab turishga olib kelmagan odamni qo'lga olishga urinishda ifodalanishi mumkinligi asoslantirilgan.

Muallif tomonidan odam savdosi odam o'g'rilash orqali amalga oshirilganda, mazkur harakatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasi 2-qismi "a" bandi bo'yicha qo'shimcha ravishda 137-modda bo'yicha kvalifikatsiya qilinmagan holda kvalifikatsiya qilinishi qayd etilgan. Jinoyat ishlarini tahlil qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, dastlabki tergov davomida mazkur harakatlar jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilingan, sud tergovi jarayonida esa harakatlar 135-modda bo'yicha qayta kvalifikatsiya qilingan.

O'xshash jinoyat tarkiblarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, garovga olishdan odam o'g'rilash quyidagi belgilari bilan farq qiladi: 1) odam o'g'rilashda uchta ketma-ket harakat mavjud – insonni qo'lga olish, uni ko'chirish va ushlab turish; 2) Jinoyat kodeksining 137-moddasida o'g'rilangan shaxsni saqlash joyining yashirinligi; 3) odam o'g'rilashda talablar qo'yiladigan shaxslar doirasining cheklanganligi (agar talablar mavjud bo'lsa); 4) garovga olishda maqsad fakultativ belgi sifatida emas, balki zaruriy belgi sifatida ko'rsatiladi, chunki u Jinoyat kodeksining 245-moddasi dispozitsiyasida qayd etilgan: garov sifatida tutqunlikka olingan shaxsni ozod qilish sharti bilan davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsdan biron-bir harakat sodir etish yoki biron-bir harakat sodir etishdan o'zini tiyib turishni talab qilish maqsadida; 5) garovga olish butun jamiyatning hayotiy muhim manfaatlariga va noma'lum keng doiradagi shaxslarga zarar yetkazadi; 6) garovga olish va talablarni ilgari surish ko'pincha ommaviy axborot vositalari orqali aybdor tomonidan ularni yetkazishga bo'lgan urinishlar bilan kechadi. Holbuki, odam o'g'rilashda aybdor shaxs o'g'rilikning oshkor bo'lishini istamaydi.

